X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 11233,8 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2020- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 16528,3 mlrd. so'mga yoki 2,1 martaga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar

	Foyda, zarar (-), mlrd. so'm	*2020- yil yanvar-avgustiga nisbatan %da*
Jami	**11233,8**	**2,1 m.**
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	- 0,8	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	11425,1	2,1 m.
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	- 301,8	-
Qurilish	14,8	190,4
Savdo	112,9	64,1
Tashish va saqlash	- 11,1	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0,6	151,4
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	11,4	3,9 m.
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	3,1	37,3
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	0,4	140,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7,8	-
Boshqalar	- 341,5	-

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (11425,1 mlrd. so'm), savdo (112,9 mlrd. so'm) va qurilishni (14,8 mlrd. so'm) amalga oshiruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ (4873,5 mlrd. so‘m), "O‘zbekiston metallurgiya kombinati" AJ (832,9 mlrd. so‘m), "O‘zkimyosanoat" AJ (238,6 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

Foydaning pasayishi "O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi (- 157,1 mlrd. so‘m), “O‘zbekneftgaz” AJ (- 48,0 mlrd. so‘m), “O‘zavtosanoat” AJ (- 41,6 mlrd. so‘m), "O‘zdonmahsulot" AJ (- 29,6 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar

	Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m	*2020- yil yanvar-avgustiga nisbatan %da*
Viloyat bo‘yicha:	**11233,8**	**2,1 m.**
shaharlar:		
Nurafshon	6,7	102,3
Olmaliq	9180,5	2,2
Angren	-332,0	-
Bekobod	79,0	26,9
Ohangaron	1034,5	3,9
Chirchiq	504,1	129,9
Yangiyo‘l	14,5	127,1
tumanlar:		
Oqqo‘rg‘on	0,9	19,6
Ohangaron	20,5	-
Bekobod	0,0	144,7
Bo‘stonliq	43,3	-
Bo‘ka	0,0	-
Zangiota	-12,4	-
Qibray	402,2	126,7
Quyi Chirchiq	11,4	53,9
Parkent	95,9	83,7
Piskent	2,4	140
O‘rta Chirchiq	5,1	-
Chinoz	1,5	-
Yuqori Chirchiq	0,5	8,4
Yangiyo‘l	65,3	4,1
Toshkent	109,9	140,1

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar - 9192,0 mlrd. so‘m (jami foydaning 77,9 %i), Bekobod shahar - 1034,5 mlrd. so‘m (8,8 %), Chirchiq shahar - 528,6 mlrd. so‘m (4,5 %) va Zangiota tumani - 413,8 mlrd. so‘m (3,5 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Zararlar. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida 54 ta korxona va tashkilotlar 573,1 mlrd. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi "O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi - 157,1 mlrd. so‘m (jami zararning 49,1 %i), "O‘zbekneftgaz" - 48,0 mlrd. so‘m (15,0 %), "O‘zavtosanoat" AJ - 41,6 mlrd. so‘m (13,0 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar summasi*	
		mln. so‘m	*jamiga nisbatan %da*
Jami	**54**	**573115,1**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	25	169155,3	29,5
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	6	312137,5	54,5
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsekillarni ta’mirlash	10	30625,2	5,3
Tashish va saqlash	4	11895,9	2,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3	2150,1	0,4
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	1	32355,9	5,6
Boshqalar	5	14795,2	2,6

2021- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan %da)



Zararning asosiy qismini, ya'ni 312137,5 mln. so'mi (54,5 %) Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasiga to'g'ri keladi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, %da*	*Zarar summasi, mln. so'm*
Viloyat bo'yicha:	**54**	**100,0**	**573115,1**
shaharlar:			
Olmaliq	2	3,7	11510,4
Angren	10	18,3	362737,7
Ohangaron	5	9,3	81068,7
Bekobod	1	1,9	34,5
Chirchiq	3	5,5	24531,7
Yangiyo'l	4	7,4	5016,1
tumanlar:			
Bekobod	1	1,9	98,5
Bo'stonliq	4	7,3	32529,7
Quyi Chirchiq	2	3,7	12413,6
Zangiota	5	9,3	11562,6
Yuqori Chirchiq	3	5,6	5510,8
Qibray	5	9,3	21219,7
Parkent	1	1,9	0,7
Pskent	1	1,9	7,4
O'rtachirchiq	1	1,9	14,2
Chinoz	2	3,7	1698,2
Yangiyo'l	3	5,5	2742,4
Toshkent	1	1,9	418,2

Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]

2021- yil 1- sentyabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 11962,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani 590,1 mlrd. so‘mni yoki jami qarzdorlikning 5,3 %ini tashkil etdi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 133,3 %ga ko‘paydi va jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 137,4 %ni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko‘rsatkich Bekobod shahar - 2609,1 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 21,8 %i), Olmaliq shahar - 2460,5 mlrd. so‘m (20,6 %), Nurafshon shahar - 1029,7 mlrd. so‘m (8,6 %) va Zangiota tumani - 970,1 mlrd. so‘m (8,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Parkent - 18,1 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 0,2 %i), Bo‘ka - 22,3 mlrd. so‘m (0,2 %) va Oqqo‘rg‘on - 33,8 mlrd. so‘m (0,3 %) tumanlarida pastligini ko‘rish mumkin.

2021- yil 1- sentyabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mlrd. so‘m	*undan:*			*Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, %da*
		xaridor va buyurt-machilar	*etkazib beruvchi va pudratchi-larga berilgan avanslar*	*ichki idora-viy*	
Jami:	**590,1**	**526,6**	**26,8**	**17,4**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	281,1	264,4	12,9	0,4	47,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’min-lash va havoni konditsiyalash	175,2	172,3	0,7	-	29,7
Qurilish	0,3	-	-	-	0,1
Boshqalar	133,5	89,9	13,2	17,0	22,6

[1)] *Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021- yil 1- sentyabr holatiga jami debitor qarzdorligi 4666,3 mlrd. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 39,0 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani - 250,2 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 42,4 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ - 2249,1 mlrd. so‘m (48,2 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ - 554,1 mlrd. so‘m (11,9 %), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ - 515,3 mlrd. so‘m (11,0 %), “O‘zavtosanoat” AJ - 472,0 mlrd. so‘m (10,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorlikdagi o‘sishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda – 2,3 m. (1260,1 mlrd. so‘m), “O‘zkimyosanoat” AJ – 134,5 % (111,4 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik “O'zpaxtasanoat” AJda - 24,1 %ga (- 29,8 mlrd. so‘m), “O'zbekiston temir yo'llari” AJda - 62,7 %ga (- 10,2 mlrd. so‘m) kamaygan.

2021- yil 1- sentyabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 13798,4 mlrd. so‘mni, undan muddati o‘tgani – 484,9 mlrd. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 3,5 %ini tashkil etdi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 3,4 %ga kamaygan hamda jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 130,8 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021- yil 1- sentyabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 5362,6 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 38,9 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani - 113,6 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 23,4 %ni tashkil qildi

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik hajmi 110,4 mlrd so‘mga kamaydi, shu jumladan “O‘zkimyosanoat” AJda - 112,4 mlrd so‘mga kamayib, viloyat bo‘yicha jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 21,9 %ini tashkil etdi.

2021- yil 1- sentyabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi
(jamiga nisbatan %da)



2021- yil 1- sentyabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mlrd. so‘m	*undan:*				*Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, %da*
		etkazib beruvchilar va pudratchilarga	*Byudjetga to‘lovlar*	*davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar*	*ichki idoraviy*	
Jami	**484,9**	**337,9**	**0,6**	**1,8**	**106,9**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	160,3	41,7	0,5	0,7	96,8	33,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	291,1	287,1	-	1,1	-	60,0
Tashish va saqlash	5,6	0,7	-	-	-	1,2
boshqalar	27,9	8,4	0,1	0,0	10,1	5,7

Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan oshishi

	Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi	
	mlrd. so‘m	*debitorga nisbatan %da*
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	788,1	135,0
“Issiklik elektr stansiyalari” AJ	134,1	126,0
“O‘zavtosanoat” AJ	46,7	109,9
“O‘zpaxtasanoat” AJ	26,0	3,7 m.
“O‘zdonmahsulot” AJ	1,9	102,0

Jami kreditor qarzdorlikning debitordan oshishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ – 788,1 mlrd. so‘m (135,0 %), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ – 134,1 mlrd. so‘m (126,0 %), “O‘zavtosanoat” AJ – 46,7 mlrd. so‘m (109,9 %), “O‘zpaxtasanoat” AJ – 26,0 mlrd. so‘m (3,7 m.), “O‘zdonmahsulot” AJ – 1,9 mlrd. so‘m (102,0 %) hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik Olmaliq - 3383,9 mlrd. so‘m (24,5 %), Angren - 2004,4 mlrd. so‘m (14,5 %) va Chirchiq - 1335,3 mlrd. so‘m (9,7 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning Oqqo‘rg‘on - 4,2 mlrd. so‘m (0,03 %), Parkent - 15,6 mlrd. so‘m (0,1 %) va Bo‘ka - 22,9 mlrd. so‘m (0,2 %) tumanlarida pastligini ko‘rish mumkin.